
Toshloq tumanida O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik tantanalari arafasida “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Tadbirlar doirasida tumandagi nuroniylar, ehtiyojmand oilalar farzandlari, ijtimoiy himoya ro‘yxatiga kiritilgan, boquvchisini yo‘qotgan, imkoniyati cheklangan fuqarolarni bayram munosabati bilan yo‘qlash maqsadida xayriya tadbirlari o‘tkazilmoqda.

Mustaqilligimizning 32 yilligi hamda yangi 2023-2024 yillar o‘quv yili boshlanishi munosabati bilan Farg‘ona viloyati hokimi o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i K.Kavlonova hamda Toshloq tumani hokimi o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i U.Marasulovalar 30 nafardan ziyod o‘quvchi yoshlarga maktab sumkalari hamda 15 turdagi o‘quv qurollari va maktab formalarini topshirdilar.

2023-08-31 20:18:31